

TARJIMADA MADANIY MOSLIKNING AHAMIYATI

Zoyirova Madina

ToshDO'TAU universiteti talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada tarjima jarayonida madaniy moslikning ahamiyati yoritilgan. Maqolada tarjimonning faqat til bilimiga emas, balki madaniy tafovutni tushunish, uni saqlab qolish, mohirlik bilan muqobil so'z yoki ibora tanlash qobiliyatiga ham e'tibor qaratiladi. Til va madaniyat o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgani sababli, tarjimada madaniy kontekstni saqlash zarurligi asoslab beriladi. Shuningdek, madaniy moslikni saqlagan holda bajarilgan tarjimada asarning tabiiyligi va ta'sir kuchi oshishi ta'kidlanadi. Maqolada madaniy farqlar e'tibordan chetda qolgan holatlarda mazmun buzilishi, noto'g'ri talqin yoki muloqotda uzilish yuzaga kelishi mumkinligi ko'rsatib berilgan. Tarjimonning xalqona bilimiga ega bo'lishi, matn kimga mo'ljallanganini anglab ishlashi hamda o'quvchi madaniyatiga mos ifodalarni tanlashi tarjima sifatini oshirishi ta'kidlanadi. O'rganish natijalari madaniy moslikka amal qilish turli xalqlar orasidagi tushunishni osonlashtirishi va tarjimaning hayotiy hamda aniq bo'lishiga xizmat qilishini tasdiqlaydi. Tadqiqot xulosalariga ko'ra, tarjimon asarni bir tildan ikkinchi tilga o'tkazibgina qolmay, balki madaniyatlararo muloqotni amalga oshiruvchi asosiy ko'priq vazifasini bajaradi.

Kalit so'zlar: Tarjima, madaniyat, til, muloqot, milliy kolorit, aloqa konsepsiyasi, metodologiya.

Abstract: This article explores the significance of cultural appropriateness in the translation process. It emphasizes that a translator must not only possess linguistic competence, but also understand cultural differences, preserve them, and skillfully select suitable words or expressions. Since language and culture are closely interconnected, the article substantiates the necessity of maintaining cultural context in translation. It also highlights that translations carried out with cultural sensitivity enhance the naturalness and expressive impact of the original work. The article demonstrates that overlooking cultural differences may lead to distortion of meaning, misinterpretation, or communication breakdown. It is noted that a translator's familiarity with cultural knowledge, awareness of the target audience, and the ability to choose culturally appropriate expressions contribute to improving translation quality. The findings confirm that adherence to cultural appropriateness facilitates mutual understanding among different peoples and ensures translations remain accurate and meaningful. The study concludes that a translator not only

transfers a text from one language to another, but also serves as a crucial bridge in intercultural communication.

Keywords: *translation, culture, linguistic, communication, national color, communication concep, methodology.*

Kirish: XXI asr insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi sifatida e'tirof etiladi. Bu davr inson jamiyatining rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beruvchi va globallashuv jarayonining barqaror bosqichi bilan tavsiflanadi. Mazkur jarayon natijasida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy sohalarda yuz bergan o'zgarishlar zamonaviy dunyoning qiyofasini tubdan o'zgartirib, butun dunyo aholisining hayot tarziga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Globallashuv tufayli xalqaro aloqalarning kengayishi, turizm sohasining rivojlanishi, xorijda ta'lim olish imkoniyatlarining ortishi, talabalar o'rtasidagi tajriba almashinuvi, xalqaro amaliyotlar va shu kabi ko'plab omillar madaniyatlararo muloqot va hamkorlik masalalarining ahamiyatini yanada oshirdi. Bu jarayon, tabiiyki, bizning mamlakatimizni ham chetlab o'tmadi. O'zbekiston fuqarolari xalqaro siyosiy va iqtisodiy tashkilotlarda, turli miqyosdagi tadbirlarda faol ishtirok etmoqdalar; ko'p millatli kompaniyalar faoliyat yuritmoqda, ayrim yoshlar xorijiy oliy ta'lim muassasalarida o'qishmoqda, o'zbek sayyohlari esa dunyoning turli burchaklarini kezib chiqmoqdalar. Turli xalqlar vakillari bilan samarali muloqot olib borish uchun esa nafaqat chet tilini, balki xorijiy madaniyatning me'yor va qadriyatlarini, xulq-atvor qoidalarini, psixologik xususiyatlarini, tarixini ham bilish muhimdir. Eng asosiysi, boshqa madaniyat vakillarini noto'g'ri talqin etmaslik uchun muloqot mexanizmini chuqur anglash zarur. belgilanadi.

Tarjimada madaniy moslik :Xorijiy va O'zbek olimlar qarashlari.

Tarjimashunoslikda moslik tushunchasi tarjimaning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. O'zbek va xorijiy olimlar bu masalaga turli yondashuvlar bildirgan bo'lsalar-da, ularning qarashlarida umumiy jihatlar ham mavjud. Xorijiy olim Eugene Nida tarjimada moslikni asosan o'quvchiga bo'lgan ta'sir bilan bog'laydi. Uning fikricha, tarjima matni maqsadli til o'quvchisida asl matn o'quvchisida yuzaga kelgan ta'sirga yaqin holatni hosil qilishi kerak. Shu sababli u rasmiy moslikdan ko'ra mazmuniy va funksional moslikni muhim deb hisoblaydi.

Bu qarashlar o'zbek olimi G'aybullay Salomov fikrlari bilan uyg'unlashadi. Salomov ham tarjimada so'zma-so'zlikni emas, balki mazmun va badiiy ta'sirning saqlanishini asosiy mezon sifatida ko'rsatadi. Uning fikricha, tarjima asl matn g'oyasini va umumiy ruhini o'quvchiga tushunarli shaklda yetkazishi lozim. Xorijiy tadqiqotchi Peter Newmark tarjimada semantic va communicative yondashuvlarni ajratadi. U tarjimada ayrim hollarda matn shakliga yaqinlik, ayrim hollarda esa o'quvchi uchun qulaylik muhim bo'lishini

ta'kidlaydi. Bu yondashuv tarjimonning vazifasiga qarab moslik turini tanlash zarurligini ko'rsatadi. Shu jihatdan, o'zbek olimi Shuhrat Sirojiddinov qarashlari Newmark fikrlariga yaqin turadi. Sirojiddinov tarjimada erkinlik va moslik o'rtasidagi muvozanatni saqlash zarurligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, tarjimon shakli moslikdan chekinishi mumkin, ammo bu chekinish asarning badiiy qiymatini yo'qotmasligi kerak. Xorijiy olimona Mona Baker tarjimada moslikni so'z, birikma va matn darajalarida ko'rib chiqadi. U ekvivalentlik doim ham to'liq bo'lmasligini, ammo turli strategiyalar orqali mazmun saqlab qolinishini ko'rsatadi. Bu fikrlar o'zbek olimi Naim Karimov qarashlari bilan mos keladi. Karimov tarjimada moslikni faqat til doirasida emas, balki madaniy kontekst bilan bog'liq holda izohlaydi. Umuman olganda, xorijiy va o'zbek olimlar qarashlarini taqqoslash shuni ko'rsatadiki, tarjimada moslik tushunchasi so'zma-so'zlik bilan cheklanmaydi. U mazmun, ta'sir va madaniy moslashuvni o'z ichiga oladi. Shu bois tarjimada moslikka erishish tarjimondan til bilimi bilan bir qatorda madaniy va ijodiy yondashuvni ham talab etadi. O'zbek tarjimashunosligida tarjimada moslik masalasi mazmuniy, stilistik va madaniy jihatlarida talqin qilinadi. G'. Salomov tarjimada ekvivalentlikni so'zma-so'z moslik bilan emas, balki mazmun va badiiy ta'sirning uyg'unligi bilan izohlaydi. (1, 45-b.) N. Karimov esa tarjimani ikki madaniyat o'rtasidagi vositachilik sifatida ko'rib, moslikni madaniy kontekstni to'g'ri uzatish bilan bog'laydi. Shuningdek, S. Sirojiddinov tarjimada erkinlik va moslik o'rtasidagi muvozanatni tarjimon mahoratining asosiy mezoni sifatida baholaydi. Ushbu qarashlar tarjimada ekvivalentlik masalasining ko'p qirrali ekanini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili va Metodologiya. Mazkur tadqiqotda tarjimada moslik masalasini o'rganishda tavsifiy, taqqosiy va tahliliy metodlardan foydalanildi. Avvalo, tavsifiy metod orqali tarjimada moslik tushunchasiga oid nazariy qarashlar umumlashtirildi. O'zbek va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilinib, ularning asosiy g'oyalari aniqlashtirildi. Taqqosiy metod yordamida asl matn va uning tarjima variantlari o'zaro solishtirildi. Bu jarayonda leksik, grammatik va stilistik birliklarning qanchalik darajada mos kelishi aniqlandi. Taqqoslash natijasida tarjimada moslikka erishilgan va erishilmagan holatlar belgilab olindi. Shuningdek, tahliliy metod orqali tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularni hal etish usullari ko'rib chiqildi. Tarjima namunalarining mazmuniy va madaniy jihatdan mosligi baholandi. Tadqiqot davomida olingan natijalar tarjimada moslik masalasini yanada chuqurroq anglash va tarjima sifatini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotda tarjimada moslik masalasini o'rganishda tavsifiy, taqqosiy va tahliliy metodlardan foydalanildi. Avvalo, tavsifiy metod orqali tarjimada moslik tushunchasiga oid nazariy qarashlar umumlashtirildi. O'zbek va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilinib, ularning asosiy g'oyalari aniqlashtirildi. Taqqosiy metod yordamida asl matn va uning tarjima variantlari o'zaro solishtirildi. Bu jarayonda leksik, grammatik va

stilistik birliklarning qanchalik darajada mos kelishi aniqlandi. Taqqoslash natijasida tarjimada moslikka erishilgan va erishilmagan holatlar belgilab olindi.

Shuningdek, tahliliy metod orqali tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularni hal etish usullari ko'rib chiqildi. Tarjima namunalarining mazmuniy va madaniy jihatdan mosligi baholandi. Tadqiqot davomida olingan natijalar tarjimada moslik masalasini yanada chuqurroq anglash va tarjima sifatini oshirishga xizmat qiladi. Madaniyatga doir tarjima albatta buni to'g'ri talqin qilish kerak. Madaniyat ikki xil ma'no anglatadi; birinchisi madaniyatni rivojlangan bo'lsa va sivilizatsiyalashgan deb ta'riflangan bo'lsa. Ikkinchisi madaniyatni odamning xulq atvori va turmush tarzi yig'indisi deb qarasa. Yuqorida aytganimizdek madaniyat tarjima jarayonida muhim ahamiyatga ega sanaladi. Katanning fikriga ko'ra, madaniyat — bu dunyoning umumiy modeli, odamlarning harakatlari va munosabatlariga rahbarlik qila oladigan e'tiqodlar, qadriyatlar va strategiyalarning ierarxik modeli. Madaniyatni turli yo'llar bilan, masalan, ta'lim orqali bilib olish mumkin. Sivilizatsiya atamasi odamlar tufayli o'z madaniyatini yaratishga muvaffaq bo'lgan rivojlangan insoniyat jamiyati sifatida ta'riflanadi. Ushbu tushunchaga ko'ra, tarjimon madaniy rivojlanish masalasini inobatga olgan holda matnni tarjima qilishi mumkin. Bu holda Nyumark tarjimaning madaniy qadriyatga ega ekanligiga, ya'ni tarjima butun dunyo madaniyatlari rivojiga hissa qo'shishiga ishonch hosil qiladi. Sivilizatsiya alifbo, lug'atlar kabi ochiq muloqot usullarini yaratishga, tillar va adabiyotlarning ulkan rivojlanishiga sabab bo'lsada, bu jarayon madaniy tarjimada yangi savollarni tug'diradi. Tarjimonning asosiy vazifasi – asarning mazmunini emas, balki qanday ruhda yozilganligini yetkazishdir. Madaniy jihatdan to'g'ri yondashib tarjima qilish asarning tabiiyligini saqlaydi. Masalan, reklama yoki filmlar tarjimasida iboralar to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinmaydi, aksincha madaniyatga moslashtiriladi. Bu tartibda tarjima qilish madaniy moslikni ta'minlab, o'quvchida tabiiy, aniq bir taassurot uyg'otadi. Shu sababdan ham tarjimon faqat til bilimdonigina emas, balki madaniyatlararo ko'priq vazifasini bajaruvchi mutaxassisdir. Turli madaniyatlarda bir xil iboralar turlicha talqin qilinishi mumkin. Masalan, inglizcha "You look great!" iborasi maqtov sifatida ishlatiladi, biroq ayrim madaniyatlarda bu ortiqcha shaxsiylik sifatida qabul qilinadi. Bundan tashqari hazil, kinoya, maqol yoki idiomalarni tarjima qilishda madaniy kontekstni hisobga olish juda muhim. Shuning uchun tarjimon har bir kompyuter yozuv tagi to'lqinni ochirish kompyuter yozuv tagi to'lqinni ochirish.

MADANIY TARJIMAGA XOS MUHOKAMALAR

Har bir so'z yoki iboraning birdan ortiq ma'nosi, ko'chma ma'nosi bo'lishi mumkin. Tarjimon matnning darak, inkor, buyruq yoki hazil ohangida ekanini bilishi lozim. Misol uchun "Men bilmayman" ("I don't know") (hold) faqatgina bayonot kabi tarjima

qilinmaydi, balki ikkilanish ("Ko'ramiz") degan ma'nosini ham berishi mumkin. "What gives"-Amerika shevasida "Ishlar qalay" degan savol mazmunini beradi.(3,2-b.) Bu tarjima gapni madaniy to'siqlar bilan o'tkazish jarayonidir. Tarjimon tarjima qilayotgan matni qaysi tilda bo'lsa o'sha tilning madaniyati bilan tanishib chiqishi lozim. Chunki har bir yoki birikma o'sha tilning madaniyati va qadriyatlarini ochib beradi.

G'aybullar Salomov tarjimada moslik masalasini so'zma-so'zlik bilan emas, balki mazmun va kommunikativ ta'sirning saqlanishi bilan izohlaydi. Uning fikricha, tarjima asl matn mazmunini maqsadli til o'quvchisi uchun tabiiy va tushunarli shaklda yetkazishi lozim. Mazkur yondashuv Black Friday atamasi tarjimasida yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu atama so'zma-so'z tarjima qilinganda "Qora juma" shaklida ifodalanadi. Biroq bu tarjima formal moslikni ta'minlasa-da, o'zbek o'quvchisi uchun atamaning asl mazmuni — ya'ni katta chegirmalar kuni tushunchasini to'liq ochib bermaydi. Salomov ta'kidlaganidek, bunday hollarda shakliy moslik mazmuniy moslikdan ustun qo'yilmasligi kerak.

O'zbek tilida qo'llanayotgan "juma aksiyasi" iborasi esa Black Friday atamasining funksional mazmunini aniqroq ifodalaydi. Bu ibora o'quvchida savdo va chegirmalar bilan bog'liq to'g'ri tasavvur uyg'otadi. Shu sababli u mazmuniy va funksional moslikni ta'minlaydi. Biroq bu variant atamaning Amerika madaniyatiga xos tarixiy jihatlarini to'liq aks ettirmaydi.

Salomov nazariyasiga tayangan holda aytish mumkinki, ilmiy va rasmiy matnlarda "Black Friday (AQShda noyabr oyida o'tkaziladigan katta chegirmalar kuni)" tarzida izohli tarjimadan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Publitsistik yoki reklama matnlarida esa "juma aksiyasi" iborasi funksional ekvivalent sifatida qo'llanishi mumkin.. Biz madaniyatga mansub so'z bilan umumiy hammaga tushunarli bo'lgan so'zlarni ajratib olishimiz kerak. Masalan ruchka, daftar, mashina bu so'zlar madaniyatga mansub emas ya'ni to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinsa hech qanday muammo bo'lmaydi, ammo shunday so'zlar borki madaniyatni yaqqol ochib beradi. Masalan "Do'ppi", "Chopon", "Atlas", "Uloq" bu so'zlar tarjimasi o'ta nozik shu sababdan ko'pincha ushbu vaziyatda biz so'zni o'zini yozib yonida uni tavsiflab ketamiz yoki to'liq mos tushadigan ekvivalent tanlaymiz. Turli jamiyatlardagi foydalaniladigan so'zlar ham turlichadir. Shu sababdan, til madaniyat yuragidir. Madaniyat tilda o'z aksini topadi. Masalan, yaponlar odatda "yo'q" so'zini ishlatishmaydi. Ular "yo'q" deyishdan qochish uchun boshqa so'zlar yoki gaplar ishlatishadi. Agar yaponlar sizning taklifingizga: "Men bu masalani xotinim bilan maslahatlashib ko'rishim kerak" deb javob qaytarsa, bu uning rad javobi bo'ladi. Agar yaponga qo'ng'iroq qilib soat 6 da ko'rishishni aytasangiz va u: "Ha, soat oltida deng?" deb javob qaytarsa, tushuningki, sizning taklifingizga rozi emas. Milliy odatlar narsa- hodisalar faqat o'ziga xos bo'lsa, ular tarjima qilinmaydi, masalan, sari, kimono, mahsi, kavish kabilar. Bular xuddi madaniy

terminlardek o'quvchilar uchun tushuntirib beriladi. Agar maxsus so'z ahamiyatga arzimaydigan bo'lsa, u oddiygina boshqa so'z bilan almashtiriladi. (4,8-b.)

Milliy kolorit tarjimada.

Milliy kolorit — bu asarda muayyan xalqning milliy tafakkuri va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi til birliklari va obrazlar majmuidir. Milliy realiyalar (bayramlar, taomlar, kiyimlar) kiradi. Masalan: Navro'z — o'zbek milliy koloritiga xos madaniy tushuncha. Thanksgiving — Amerika milliy koloritini ifodalovchi bayram. Tarjimada madaniy moslik muammosi asl matnda ifodalangan milliy-madaniy xususiyatlarning maqsadli til va madaniyat doirasida adekvat yetkazilishi bilan bog'liq. Ushbu jarayonda milliy kolorit muhim nazariy tushuncha sifatida namoyon bo'ladi. Milliy kolorit matnda xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlar, an'analar, ijtimoiy munosabatlari va madaniy qadriyatlarining til birliklari orqali aks etishini anglatadi. Tarjimada milliy koloritni saqlash madaniy moslikni ta'minlashning asosiy shartlaridan biridir. Agar tarjimada milliy-madaniy komponentlar e'tibordan chetda qolsa, matn mazmunan to'g'ri bo'lsa ham, uning madaniy va kommunikativ ta'siri susayadi. Shu bilan birga, milliy koloritni faqat so'zma-so'z usulda yetkazish ham har doim ham ijobiy natija bermaydi, chunki bu holat maqsadli auditoriya uchun tushunarsizlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Shu sababli tarjimashunoslikda milliy kolorit madaniy moslik doirasida saqlash, izohlash va funksional moslashtirish kabi usullar orqali beriladi. Bu yondashuv tarjimaning mazmuniy aniqligi bilan bir qatorda, uning madaniy adekvatligini ham ta'minlaydi. Tarjimon matnning milliy ruhini saqlagan holda, uni maqsadli til o'quvchisiga tushunarli shaklda taqdim etishi lozim. Demak, tarjimada madaniy moslik milliy koloritni to'g'ri yetkazish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayon tarjimondan nafaqat lingvistik bilim, balki madaniy kompetensiya va nazariy tayyorgarlikni ham talab etadi.

XULOSA:

Shunday qilib, Tadqiqot davomida aniqlanishicha, madaniy moslik tarjima sifatining asosiy mezonlaridan biri bo'lib, u matnning kommunikativ ta'siri va o'quvchi tomonidan to'g'ri qabul qilinishini ta'minlaydi. Agar tarjimada madaniy komponentlar, xususan, milliy kolorit e'tibordan chetda qolsa, tarjima matni mazmunan to'g'ri bo'lsa ham, uning madaniy va semantik boyligi sezilarli darajada kamayadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari madaniy moslikni faqat so'zma-so'z tarjima orqali ta'minlab bo'lmasligini ko'rsatdi. Aksincha, tarjimada izohlash, funksional moslashtirish, qisman saqlash va kontekstual yondashuv kabi usullardan foydalanish zarur. Bu yondashuvlar tarjimaning mazmuniy aniqligi bilan bir qatorda, uning madaniy adekvatligini ham oshiradi. Tarjima yuzlashadigan eng qiyin muammolardan biri buyumlar yoki voqea-hodisalarning leksik ekvivalentini topishdir. Tarjimon faqatgina ikki tilni emas, balki ikki madaniyatni taqqoslaydi. Madaniyatlarning

farqi tufayli tarjima qilinadigan tildagi tushunchalarda tarjima qilinayotgan tilda leksik ekvivalent bo'lmashligi mumkin. Bu geografiya, urf-odatlar, e'tiqodlar, dunyoqarashlar va boshqalarning turlichaligi tufayli bolishi mumkin. Tarjimon tushunchalarni ifodalash uchun tariima tilida yangi yo'l va usullarni topishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Achilov O. Hozirgi zamon tilshunosligida ilgari surish hodisasini tadqiq etishning nazariy asoslari. – Toshkent: Factor Press, 2023. – 2 b.
2. Achilov O. Badiiy matnlarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan transformatsiya va ularning qiyosiy tahlili. – Toshkent: Factor Press, 2023. – 8 b.
3. Mamarasulova G. A. Ingliz romantizm adabiyotida sharqqa yaqinlashuv hodisasi // O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari materiallari. – Toshkent, 2024. – B. 955–958.
4. Salomov G‘. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 1983. – 256 b.
5. Salomov G‘. Badiiy tarjima va milliy kolorit. – Toshkent: Fan, 1978. – 180 b.
6. Komissarov V. N. Sovremennoye perevodovedeniye. – Moskva: ETS, 2002. – 424 s.
7. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London: Routledge, 2011. – 332 p.
8. Nida E. A. Toward a Science of Translating. – Leiden: E. J. Brill, 1964. – 331 p.
9. Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988. – 292 p.
10. Mahmadiyor Asadov. (2025). A Brief Review Of Vilen Komissarov's Theory Of Equivalence. International Journal Of Literature And Languages, 5(12), 86–89.